



SO'G'D KONFEDERATSIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI

Shodiyeva Shahlo Soliyevna
t.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada markazi Samarqand bo'lgan So'g'd konfederatsiyasining tashkil topishi, undagi boshqaruv tartiblari atroflicha yoritilgan bo'lib, shuningdek, Xitoy manbalaridagi So'g'd tarixiga doir ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: So'g'd konfederatsiyasi, Jamuk xonadoni, "Ko'hna xatlar", "Bey shi", "Suy shu", "Tan shu", Kan, sug'diy etnos.

Аннотация: В данной статье подробно описано создание Согдийской конфедерации с центром в Самарканде, ее административные процедуры, а также проанализированы сведения по истории Согда из китайских источников.

Ключевые слова: Согдийская конфедерация, династия Джамук, «Старые письма», «Бэй ши», «Суй шу», «Тан шу», Кан, согдийский этнос.

Summary: This article describes in detail the creation of the Sogdian Confederation with its center in Samarkand, its administrative procedures, and also analyzes information on the history of Sogd from Chinese sources.

Key words: Sogdian confederation, Jamuk dynasty, "Old writings", "Bei shi", "Sui shu", "Tang shu", Kan, Sogdian ethnic group.

Kirish. Qadim Sug'dning tarixi uzoq o'tmishga ega bo'lib, azaldan insoniyat tamadduni beshiklaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa vohaning ilk o'rta asrlar davri Samarqand tarixida muhim o'rin tutgan. Ilk o'rta asrlar Samarqand markazli Sug'd konfederatsiyasi – "Sug'd ittifoqi" mazmunidagi ushbu nisbiy atama ostida ilk o'rta asrlarda Zarafshon daryosi havzasidagi Samarqand, Panch, Maymurg', Ishtixon, Kabudon, Kushoniya hukmdorliklarini hamda Qashqadaryo daryosi havzasidagi Kesh va Naxshab hukmdorliklarini o'z ichiga olgan muayayn siyosiy uyushma tushunilib, uning tarkibidagi mazkur hukmdorliklar o'z ichki boshqaruvida mustaqil bo'lishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Tanlangan mavzu doirasida bir qancha tarixiy adabiyotlar tahlilga tortilgan bo'lib, diskurs tahlil, davriy-xronologik izchillik, komparativ yondashuv kabi metodlardan keng foydalanilgan.



Natijalar va muhokama. Konfederatsiya tarkibiga kiruvchi siyosiy hududlarning har biri o‘z boshqaruv markazi – poytaxti, hukmdor sulolasi, hokimiyat ramzlari (tanga, tamg‘a va h.k.), qo‘shini kabi hokimiyat xususiyatlariga ega bo‘lishgan. O‘z navbatida ularning bitta siyosiy ittifoq–konfederatsiyaga birikishlari asosida mazkur hukmdorliklarning o‘zaro yetakchi hukmdorlik (yoki sulola)ga bo‘ysunishlari, hukmdor sulolalar kelib chiqishi jihatidan yagona xonadonga borib taqalishlari yoki ayrim ijtimoiy-siyosiy va madaniy-mafkuraviy majburiyatlarni bajarishlari kabi omillar yotgan. Jumladan, Samarqandda Chjaovu (Jamuk) xonadoni hukm surib, qolgan hukmdorliklardan aksariyatini ushbu xonadonga mansub sulolalar boshqarishgan va ular orasida Samarqanddagi sulola yetakchilik qilgan[1]. Tashqi dushmanlarga birgalikda kurashish majburiyatida bo‘lgan hukmdorliklar vakillari yilning muayyan vaqtlarida bitta joyga yig‘ilgan holda diniy amallarni, xususan, zardushtiylar udumlarini hamkorlikda bajarishgan. Sug‘d tarixi yuzasidan manbalarni lingvistik tahlil qilgan ingliz eronshunosi N.Sims-Villyams tadqiqotlarini ham bu boradagi muhim izlanishlar sirasiga qo‘shish mumkin. Yozma yodgorliklarni tadqiq etgan B.G‘arib sug‘diy lug‘atni yaratdi. Yozma yodgorliklarni tahlil qilgan fransuz olimi F.Grene tadqiqotlarida Mug‘ tog‘i hujjatlari bilan birga “Ko‘hna xatlar” va Kulto‘badan topilgan sug‘diy hujjatlar lingvistik jihatdan o‘rganilgan. Mazkur manbalarda umumsug‘d tarixiga doir ma‘lumotlardan ko‘ra, ko‘proq manbalarning lingvistik tahliliga e‘tibor berilgan. Shuningdek, sug‘diy yozma yodgorliklarning etimologiyasi (so‘zlarning kelib chiqishi) muammolarini I.S.Yakubovich izlanishlarida ko‘rish mumkin. Mazkur tadqiqotda ham Sug‘dda konfederatsiyalashuv jarayoniga daxldor umumiy fikrlar keltirilgan. Tadqiqot sug‘diy yozuvning evolyutsiyasi to‘g‘risida muhim ilmiy izlanish hisoblanib, muallif tadqiqot asnosida sug‘diy nikoh shartnomasi va Abdurahmon ibn Subhning Devashtichga maktublarini etimologik tahlil qilgan hamda Sug‘dning siyosiy tarixiga oid bir qator mustaqil fikrlarni ilgari surgan. Sug‘diy yozuvning lingvistik tahlili va manbalardagi sug‘diy iboralarning tahlili, sug‘diy til genezisi borasida Payn Shmidt, Xaviyer Trombley, Prod Shervu, kabi tadqiqotchilarning ishlarini alohida e‘tirof etish lozim[4].

Sug‘d konfederatsiyasining ma‘muriy-siyosiy tuzilishi uning tabiiy-geografik joylashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, vohadagi har bir kichik hukmdorlik o‘zi joylashgan hudud – daryo havzasi, tog‘ yoki qirlar orqali biri-ikkinchisidan ajralib turishi omilidan kelib chiqqan holda o‘zining ma‘muriy-siyosiy yaxlitligiga ega bo‘lgan. Masalan, Qashqadaryoning yuqori havzasidagi Keshning ma‘muriy-siyosiy holati, xuddi shu daryoning o‘rta va quyi havzasidagi aholi maskanlarini o‘z ichiga



olgan Naxshab hukmdorligidan alohida shakllanib, har ikkala hukmdorlikni ular orasidagi qirlar va dashtlar ajratib turgan. O'z navbatida, mazkur ikkala hukmdorlik shimoldan Kushoniya, Samarqand va Maymurg'dan tog'lar hamda keng dashtliklar orqali ajralgan. Samarqand, Kushoniya, Ishtixon, Kabudon, Panj, Maymurg' ham garchi Kesh va Naxshab kabi keng dashtlar orqali bo'lmasada, nisbatan torroq dasht va qirlar orqali ma'muriy-siyosiy jihatdan bir-birlaridan alohida bo'lishgan. Bir so'z bilan aytganda, konfederatsiyaning shakllanishi va ma'muriy bo'linishida geografik omillar muhim ahamiyat kasb etgan. Sug'd konfederatsiyasi hukmdorliklari Qang' davlati tarkibida ham o'z o'rniga ega edi. Xitoy yilnomalarida keltirilgan Sug'd hukmdorliklari Qang' davlati kuchaygan davrda unga qo'shib olingani va ular o'zlarining davlatchilik an'analariga ega bo'lganliklari mazmunidagi ma'lumot ushbu fikrni tasdiqlaydi[2]. Bundan tashqari, yilnomalarda Sug'd hukmdorining Qang'uy xonadoni vakili deb keltirilishi, Qang' davlati tarkibidagi boshqa hududlarga nisbatan Sug'dning mavqeyi baland bo'lganligidan dalolat beradi. Ayni ana shu mavqedan foydalangan holda Sug'd hukmdorlari o'z atroflaridagi katta-kichik hukmdorliklarni birlashtira boshlaganlar va Qang' davlati parchalangach, bu jarayon yanada jadallashgan. Chunki Qang' davlati konfederativ asosdagi davlat bo'lib, uni yagona markazdan boshqarish anchayin qiyinchiliklar tug'dir edi. Bu esa davlatni konfederatsiyalarga bo'lib boshqarishni qulay ekanligini namoyon etar va Qang'dagi konfederativ boshqaruv modeli Sug'dda davom etdi. Ularda konfederatsiyaga birlashishda etnoslar dominantligi farq qilardi. Xullas, o'zbek xalqi va unga qo'shni bo'lgan boshqa xalqlar o'zlarining davlatchilik tarixini o'rganishga intilayotgan bugungi kunda ilk o'rta asrlarda Sug'dda yaratilgan madaniyat Markaziy Osiyo xalqlariga birday tegishli ekanligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, ilk o'rta asrlarda Sug'd Markaziy Osiyo mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy va ham madaniy jihatdan taraqqiy etgan mintaqasi hisoblanib, bu har bir hukmdorlikning o'z nomidan tanga zarb qilganligi, ayni davrda mintaqada bir qancha shaharlarning vujudga kelganligi va rivojlanganligi, davlat boshqaruvi, mahkama va devon ishlarining yo'lga qo'yilganligi kabi misollar asosida o'z tasdig'ini topadi. Sug'd konfederatsiyasida VII – VIII asrlarda mavjud unvonlar tahlili natijalari Sug'dni muayyan davlatchilik asoslariga ega siyosiy uyushma sifatida e'tirof etishga imkon beradi. Lekin ushbu boshqaruvning tub mohiyatini anglash, boshqaruvdagi markaziy va mahalliy unvonlarning vazifalarini aniqlash hamda mazkur boshqaruvning barcha davrlarini, xususan, ilk o'rta asrlar davridagi holatini chuqurroq tadqiq etish lozimdir. Chunki ayni ilk o'rta asrlarda yer egaligining shakllari o'zgarib, boshqaruv manfaatlarini ko'zlagan xususiyat kasb etdi. Askincha, yaxlit podsholik mulki



hisoblangan yer endilikda mulkdor aslzoda qatlam qo‘liga o‘tib taqsimlanish ro‘y berdi. Har bir yer egasi o‘z hududi markazida qo‘rg‘on, qasrlar qurish, shaxsiy harbiy guruhlar saqlash kabi ijtimoiy va mulkiy munosabatlarga ega bo‘ldi. Ixshidlik boshqaruvi asos e‘tibori bilan yer mulkdorlari bilan hisoblashadigan bo‘ldi. Bu jarayon bir muncha ilgari milodiy II - asr oxiri III - asr boshlarida boshlangan. Sug‘d konfederatsiyasi taraqqiy eta borgan sayin boshqaruvda markazlashish jadallashdi. VII asrning o‘rtalari konfederatsiya hukmdorliklari Kesh atrofida birlashgan bo‘lsalar, shu asr ikkinchi yarmidan boshlab barcha konfederatsiya a‘zolari Samarqandni konfederatsiyaning markazi sifatida tan olishgan. Konfederatsiya taraqqiy eta borgani sari boshqaruv takomillashtirildi. Xususan, Turk xoqonlaridan biri bo‘lgan, xoqonlikboshqaruvida islohotlar o‘tkazgan Tun yabg‘u-xoqon davrida (618 – 630) xoqonlikning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Sug‘d konfederatsiyasida ham ma‘muriy boshqaruv takomillashtiriladi. Sug‘ddagi hukmdorliklar markazga va o‘z navbatida, mulklar hukmdorliklarga konfederativ tartibda o‘z sodiqliklarini bildirganlar[6]. Ba‘zi hollarda mulklarning hukmdorlikka yoki markazga tobelik holatini aniqlash ancha qiyinchilik tug‘diradi. Y.Yoqubovning Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlariga suyanib keltirishicha, Parg‘ar, Buttam (Yuqori Zarafshon) kabi qishloqlarni anchayin erkin harakat olib borganliklari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri markaz Samarqandga itoat etmay, avval Panjga, so‘ngra uning ixtiyori bilan markazga bo‘ysungan deb hisoblaydi. Xuddi shunga o‘xshash holatni Naxshabning Keshga tobeligi holatida ham kuzatish mumkin[5]. Sug‘d konfederatsiyasining markaziy hokimiyati (Samarqand) va yirik hukmdorliklari (Kesh, Naxshab, Panch) qatorida ba‘zi hukmdorliklar tarkibidagi mulk hukmdorlari tomonidan ham tangalar zarb qilinganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, konfederatsiyaning Kushoniya hukmdorligining Samiton mulkida ham tanga zarb etilganligi buni tasdiqlaydi. Samiton tangalaridagi tamg‘alar markaziy Sug‘d tangalaridagi tamg‘alardan farq qilgan. Chunki mintaqadagi siyosiy vaziyat bilan bog‘liq holda har bir davrda o‘ziga xos ramziy belgilar bo‘lgan va ular bir-biridan farq qilgan. Har bir hukmdorlikning tamg‘asini biror-bir mamlakatning emas, u yerni boshqarib turgan sulolaning ramziy belgisi sifatida baholash mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi[2]. Ayni mana shu asos konfederatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Maymurg‘da ham tanga zarb qilinganligi xususida ayrim qarashlar mavjud. Bugungi kun sug‘dshunosligidagi bahsli muammolardan biri Sug‘d konfederatsiyasini boshqargan hukmdorlarning shajarasi, ular mansub bo‘lgan sulolaning kelib chiqishi masalasidir. Sug‘d konfederatsiyasining ilk o‘rta asrlarga qadar boshqargan hukmdorlarning ismlari fanga ma‘lum emas. Sug‘d



konfederatsiyasini ilk oʻrta asrlarda boshqargan hukmdorlari aksariyatining ismlari esa, asosan, xitoy yilnomalari va tangalar orqali yetib kelgan. Yozma manbalar orqali faqat Devashtich, Gʻurak yoki Tarxun kabi hukmdorlarning ismlari yetib kelgan xolos. Xitoy yilnomalarida keltirilgan baʼzi maʼlumotlar bu masalani yechishda yordam berishi mumkin. Xususan, “Bey shi”, “Suy shu” va “Tan shu” yilnomalarida Kan (Samarqand) hukmdorlarining kelib chiqishi Chjaovu oʻlkasidagi hududga borib taqalishi qayd etiladi hamda markazi Choch va oʻrta Sirdaryo boʻlgan Qangʻ davlati hukmdorlarining ham Samarqanddagi Kan xonadoni bilan qarindoshligi tilga olinadi.

Mavzuga doir manbalarda Sugʻdning konfederativ asosda boshqarilganligiga doir ishoralar koʻzga tashlanadi. Ayniqsa, Xitoy yilnomalarida keltirilgan Samarqanddagi sulolaning yetakchi boʻlganligi va uning toʻqqizga boʻlinganligi, numizmatik materiallar asosida Sugʻddagi har bir hukmdorlikning oʻz tanga zarbiga egaligi hamda Mugʻ togʻi sugʻdiy hujjatlarida keltirilgan tashqi dushmanga qarshi birgalikda ittifoq tuzish, arab va fors manbalarida keltirilgan Sugʻd chegaralarining doimiy ravishda oʻzgarib turishi kabi misollar Sugʻd tarixiy-madaniy oʻlkasi konfederativ asosda boshqarilganligini tasdiqlaydi. Sugʻd miloddan avvalgi II asr oʻrtalarida Yunon-Baqtriya podsholari davrida mustaqillikka erishish uchun harakat boshlab, milodning I asrlaridan mustaqil tanga zarb qilishga erishgan bir necha kichik hukmdorliklardan iborat Sugʻd nomi ostida muayyan bir siyosiy uyushma – konfederatsiya shaklidagi tuzilma koʻrinishiga kela boshlagan. Mazkur konfederatsiyaning bosh maqsadi qarindoshlik munosabatlari asosidamintaqadagi siyosiy vaziyatning barqarorligini taʼminlash boʻlganligi uning keyingi faoliyati davomida yanada oydinlashadi. Ayni mana shu tinchlikning saqlanishi mintaqada shaharsozlik, sanʼat va madaniyatning Sugʻd hukmdorlari rahnamoligida rivoj topishiga asos boʻlib xizmat qilgan. Sugʻd konfederatsiyasi sugʻdiy etnos yashagan hududlarning bir-biri bilan bogʻliqligi va ular munosabatlarining zaruriyati bilan oʻlchanadi. Masalan, mil. avv. III – II asrlarda boshlab sanskrit va hind yevropa tillari oʻzining flektiv xususiyatlarini saqlagan holda eroniy tillar analitik til doirasiga oʻtib ketdi[3]. Ayni mana shu davr Sugʻd konfederatsiyasi uchun muayyan zamin yaratdi. Chunki Sugʻd konfederatsiyasining oʻziga xos tabiiy hududiy chegaralanish xususiyati ularni til va etnik umumiylik asosida birlashuvini zarurat qildi. Davlat yoki qabilalarning muayyan yagona masalani muhokama etish uchun yigʻilishlari va shu asosda birlashishlari konfederatsiyaning shakllanishiga turtki boʻlgan omillardan hisoblanadi.



Xulosa. Xulosa qilish mumkinki, Konfederativ boshqaruvda markaz (poytaxt) bitta shahar bo‘lib, unga birlashgan ittifoqdosh hududlar (ma‘muriy birliklar)ning har biri o‘z nomidan tanga-pul zarb qilishi, hokimiyat ramzlariga ega bo‘lishi hamda dushman xuruji davrida markazga o‘z qo‘shini bilan yordam berishi va ma‘naviy tadbirlarni birgalikda bajarish sharti ham bo‘lgan. Bundan tashqari, til, din va etnik mansublik jihatidan ham umumiylik muhim ahamiyat kasb etgan. Bu konfederativ boshqaruvning bosh mezonlari bo‘lib, Cug‘d o‘zining boshqaruv tizimi, ma‘muriy bo‘linishi, hukmdorlar shajarasi, hokimiyat ramzlari mavjud bo‘lgan konfederativ davlat ko‘rinishiga to‘la mos keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Bobur G‘oyibov. “So‘g‘d tarixidan lavhalar. Samarqand 2020
2. Bobur G‘oyibov, G‘aybulla Boboyorov. “So‘g‘dshunoslikka kirish. So‘g‘diy til va numizmatika” Toshkent 2018
3. Is‘hoqov M. “So‘g‘dshunoslikning ayrim masalalari, Markaziy Osiyo tarixi: manbashunoslik va tarixnavislik izlanishlari” Toshkent 2009
4. Шамсиддин Камолиддин. “Последний ихшид Когда Тургар в письменных Источников” Kamoliiddin Sh. C.Toshkent 2012
5. Кобзева О.Р. “Роль Великого шелкового пути в формировании этнического разнообразия Зарафшанской долины” Toshkent 2007
6. Семенов Г. Л. “Согдийская фортификация V-VIII веков.” СПб 1996.
7. М. Орзиев, Шодиева Ш. Россия протекторати ўрнатилиш жараёнида Бухоро амирлиги ва Усмонли турк давлати муносабатлари. Ўтмишга назар журнали 2 сон, 4 жилд. Тошкент 2021.
8. Шодиева Ш. “Ёш турклар” инкилобидан сўнг Бухорода Усманийлар таъсирининг ошиб боришида матбуот нашрларининг ўрни. Паёми Донишкада – 2021. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Панжикент - 2021. –С. 821-824.
9. Шодиева Ш. Бухорода Герман-Турк жосуслик фаолияти. “ЎзМУ хабарлари” илмий журнали. 2022. №1/3. -Б 55-57.
10. Шодиева Ш. Бухоро амирлиги ва Усманийлар салтанати алоқалари тарихидан. *Таълим ва инновацион тадқиқотлар. Бухоро. (2022 йил №11) Б 37-42.*
11. Шодиева Ш. Бухоро амирлигида турк эмиссарлари фаолияти. “ЎзМУ хабарлари” илмий журнали. 2022. №11. -Б 38-42.
12. Шодиева Ш. Бухоро элчиси Болтакулбек Чигатойбегининг Усманийлар империясига ташрифи хусусида. “Жаҳон тарихининг долзарб муаммолари” мавзусидаги Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро, 2020 йил.
1. Курбонова, Д. Н. (2024). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ GOOGLE DOCS И РЕДАКТИРОВАНИЯ ФАЙЛОВ В СРЕДЕ GOOGLE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(4), 108-113.
2. Исмоилова Г. Ўзбекистонда хотин-қиз ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 22.



3. Бухарское городское училище №100 // Текстильщик Бухары, 9 июня 1979 года.
4. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. Farg'ona davlat universiteti, (1), 49-49.
5. Утаева Феруза Холмаматовна, Т. Ю. Х. (2023). BUXORO TO'QIMACHILIK KOMBINATIDA MUTAXASSISLARNING O'RNI VA OILALARNING ISH BILAN TA'MINLANISHI: Utayeva Feruza Xolmamatovna, Buxoro davlat universiteti dotsenti, Teshayeva Yulduz Hakim qizi, Buxoro davlat universiteti 2-kurs magistr. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (4), 33-39.
6. Utayeva, F. (2023). TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA AHOLINING ISH BILAN TA'MINLANISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 41(41).
7. F Utayeva (2023). TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA AHOLINING ISH BILAN TA'MINLANISHI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 41 (41)
8. F Utayeva, B Safarov ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. 303-307.
9. F Utayeva, P Sharipova, RF G'ayratjon qizi Rahmatova (2023) MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO TO 'QIMACHILIK SANOATIDA MODERNIZATSIYALASHUV JARAYONLARI Scientific journal of the Fergana State University, 61-61.
10. Utayeva FX (2022) MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 18 (18)
11. ФХ Утаева (2022) BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 5 (5)
12. F Utayeva (2022) BUXORO SHAHRIDA ZAMONAVIY TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 10 (10)
13. F Utayeva (2023) BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 41 (41)